

**O'QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA ESHITISH QOBILIYATINI  
SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGI**

**Sultanov Akmaljon Normuhhammatovich**

*Farg`ona davlat universiteti o`qituvchisi*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6614904>**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada milliy musiqa eshitish ko`nikmalarini shakllantirishda bugungi kun pedagogi oldiga qo`yilgan dolzARB masalalarini atroflichA tadbiq etib o`rganilgan.

*Kalit so`zlar:* pedagogik texnologiya, ta`lim va tarbiya, kommunikativ didaktika, kommunikativ faoliyat, muloqot tamoyili, muloqot darajasi.

**ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «ЭФФЕКТИВНОСТЬ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ У  
УЧАЩИХСЯ СПОСОБНОСТИ СЛЫШАТЬ НАЦИОНАЛЬНУЮ МУЗЫКУ»**

*Аннотация.* В данной статье подробно рассмотрены актуальные вопросы, стоящие перед педагогом в формировании национального музыкального слуха.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, воспитание и обучение, коммуникативная дидактика, коммуникативная деятельность, принцип общения, уровень общения.

**THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN  
THE FORMATION OF STUDENTS' ABILITY TO HEAR NATIONAL MUSIC**

*Abstract.* In this article, the topical issues facing the teacher in the formation of the national musical ear are considered in detail.

**Key words:** pedagogical technology, education and training, communicative didactics, communicative activity, the principle of communication, the level of communication

**KIRISH**

O`quv muassasasi u maktabmi, kollejmi, oliy o`quv yurtimi u yerda asosiy maqsad o`quvchi yoki talabaga bilim berish hisoblanadi. O`qituvchi bilim berishdan tashqari bilim berishning eng qulay, samarali yo`llarini izlab, ta`lim jarayonini qiziqarli va mazmunli o`tishini tashkil etadi. Bunday faoliyatning o`zini ta`lim texnologiyasi deb atash mumkin. “Ta`lim texnologiyasi (boshqa – Grech.dan. τέχνη-san’at, hunarmandchilik-mahorat; λόγος-so`z, ta`lim)-shakllari, ta`lim usullari va ta`lim vositalari maxsus majmui”<sup>1</sup>da yoki pedagogik texnologiyada pedagogik ta`lim berishning turli yo`l, usullarini o`z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilish kerak.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Musiqiy ta`limda ham “pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari: kontseptuallik, tizimlilik, didaktik maqsadlar, innovatsiya, maqbullik, tuzatish, qayta ishlab chiqarish, boshqarish, samaradorlik”<sup>2</sup> kabilar bilan birga o`quvchilarda musiqiy tendensiyalarni shakllantirishda “o`qituvchining suhbat, birga aqliy xujum, taqdimot slaydlarini namoyish qilish, o`quv filmining fragmentlari, musiqiy videorolik, audio yozuvlarni tinglash kabi faol o`qitish metodlarini qo`llash yuqori samaradorlikka erishishda xizmat qiladi”<sup>3</sup>. Mazkur interaktiv ta`lim

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/> - Педагогические\_технологии

<sup>2</sup> Selevko, V. T. Fomenko. Texnologiya qarab tasniflanadi Ilmiy jurnal Kubgau, № 84 (10), 2012 yil

<sup>3</sup> Ўша манба

usuli o‘quvchi yoshlarning fiziologik, psixologik, aqliy qobiliyatlarini yanada oshirishga xizmat qilish bilan birga ulardagi milliy musiqaning ko‘p sonli turlarini o‘zaro bir-biridan farqlash, tasniflash, tahlil etish, o‘rganish kabi tendensilarni shakllantiradi “An’anaviy ta’lim bilan taqqoslaganda: o‘qituvchining faoliyati o‘quvchilarning faoliyatiga yo‘l beradi va o‘qituvchining vazifasi ularning tashabbusi uchun sharoit yaratishdir. O‘qituvchi o‘ziga xos filtr rolini rad etadi, u orqali ta’lim ma‘lumotlarini uzatadi va axborot manbalaridan biri bo‘lgan ishda yordamchi vazifasini bajaradi. Interaktiv ta’lim - ta’lim jarayonining boshqa mantig‘ini nazarda tutadi: nazariyadan amaliyotga emas, balki yangi tajribani shakllantirish orqali uning nazariy tushunchasiga. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining tajribasi va bilimlari ularning o‘zaro ta’lim va o‘zaro boyitish manbai bo‘lib xizmat qiladi”<sup>4</sup>. Bu esa ta’lim oluvchida bir qancha moyilliklarni bir tizimga solish imkonini yaratib beradi. Natijada turli musiqiy janrlarga ko‘r-ko‘rona ergashishni oldini olish bilan birga, milliy mumtoz musiqiy idrokka ta’sir etuvchi transformatsion tendensiyalarni o‘zaro tasniflash, biridan birining afzalligi, yutuq va kamchiliklari borasida o‘zining qarashlari shakllanishiga olib keldi. Quyida ana shunday interfaol metodlardan namunalar keltirib o‘tamiz:

#### Zanjir:

Qo‘shiqning ijro etilishi navbat bilan amalga oshiriladigan “qurt chiziq”, galma-gal ijro etiladigan usul. Har bir qo‘shiqchining e’tiborini faollashtirishga, keyingi ishtirokchini diqqatini o‘z vaqtida jalb eta olishiga ko‘mak beradi.

#### Kichik-chiqishlar:

Mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchi yakka o‘zi yoki ansamblida (duet, trio) solist bo‘lib ishtirok etadi. Shunday qilib, yetakchining shaxsiy fazilatlarni mustahkamlash, kichik shakllarda bo‘lsada, tomoshabin qarshisida sodir bo‘ladigan qo‘rquv his-tuyg‘ularini yengishiga yordam beradi.

#### Viktorina:

“Musiqiy Test”, video savollar yoki ikki jamoaning “musiqiy jang” shaklida.

#### Teatr ishlab chiqarish:

Ko‘plab musiqiy belgilari orqali musiqiy ertaklarni o‘rganish. Keyinchalik kostyumlarda, bezaklarda va tegishli musiqiy dizaynda (fonogramma yoki instrumental qo‘shiq) ijro etiladi. Musiqiy ertaklarning namunalari: "Zumrad va Qimmat", "Egrivoy va To‘g‘rivoy".

#### Ta’lim ekspeditsiyasi:

Teatrlarga, musiqiy konsertlarga va muzeylarga guruh tashrifi. Sinfdagagi taassurotlarni keyingi tahlil qilish, xulosalar chiqarish.

#### Ommaviy ijro:

Darsda faol ish olib borish natijasi - tadbirlar, konsertlar va tanlovlarda ijro etilishi. Shubhasiz, kontsert sharoitlariga moslashish: sahna maydoni, ovoz sifati va tomoshabinning psixologik bosimi.

#### Ijodiy vazifa.

<sup>4</sup> <https://nsportal.ru/sites/> interaktivnye metody

Har bir bayram "bolalar jamoasi"da iz qoldirmasdan o'tmaydi. Shubhasiz, bu tematik tadbirga tayyorgarlik, musiqa zalining dizayni va shu kabi mavzularni o'tkazishda har bir talaba o'z shaxsiyligini ko'rsatishga harakat qiladi, tayyorgarlik jarayonida fikrlarni baham ko'radi"<sup>5</sup>.

### TADQIQOT NATIJALARI

O'quvchilarda milliy va mumtoz musika eshitish kunikmalarini shakllantirish bugungi kunda musiqiy idrokka ta'sir etuvchi transformatsion tendensiyalarni shakllantirishda o'quvchi – o'qituvchi – o'quvchi hamkorligi, ijodiy faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, boshqalarning fikriga bag'rikenglik, muloqot qilish, murosaga erishish va topish qobiliyati ta'limning muhim natijalaridir. Interaktiv metodologiyaning asosiy maqsadi o'zaro ta'sirlar orqali tendensiyalarda ta'limni mustaqil ravishda topish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga, talabalarning bir-birlari bilan o'zaro munosabat almashinuvlariga ham e'tibor berilishi kerak. Zero, o'zaro munosabatlar orqali yoshlarda musiqiy qarashlarining, musiqiy tafakkurlarining kengayishi va rivoj topishida yuqoridaagi kabi tendensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda interaktiv ta'limning asosiy uslubiy tamoyillari:

Ish materiallari va o'qitish usullarini diqqat bilan tanlash;

Musiqiy faoliyatning aniq amaliy misollarini har tomonlama tahlil qilish, qiyosiy va eshitish tahlilini qo'llash;

Barcha o'quvchilar bilan uzlusiz vizual aloqani ta'minlash;

Texnik vositalardan, shu jumladan tarqatma va didaktik materiallardan jadvallar, slaydlar, o'quv filmlari, roliklar, videokliplar, videotexnika shaklida faol foydalanish, ularning yordamida o'rganilayotgan material tasvirlangan;

O'qituvchining faol guruh ichidagi o'zaro ta'sirini doimiy ravishda qo'llab - quvvatlash, kutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda o'qituvchining muhokamada tezkor aralashuvi;

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik mashg'ulot jarayonini belgilashdagi muhim vaziyat va holatlar: o'quvchi yoki talaba bilim olish jarayonida duch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash, o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmuni (o'quv rejasi, dasturi, mavzu mohiyati, o'quv – uslubiy manbalarni mavjudligi) ni belgilash, bilim va tushunchalar, ularni murakkablik darajasi va hajmini o'quvchining bilim va malakalariga moslik darajasini aniqlash, ta'lim – tarbiya shakllari va vositalari (qo'shimcha manbaalar, savol-javob, munozara, test savollari, ko'rgazmaliliklar, texnik vositalar yordamida eshitish, tinglash manbalari) ni tayyorlash; ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasi sifatini baholash mezonlariga mos ravishda o'quvchining egallagan bilim va malakalarini ob'ektiv baholash uchun dars va darsdan tashqari o'quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish kabilar pedagogik texnologiyalarning vazifalari hisoblanadi.

O'quvchi yoshlarning milliy musiqa eshitish kunikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning yangicha va samarali ish sirlari tajribalarini o'rganish;

<sup>5</sup> <https://nsportal.ru/> Мустафина А. Р. «Интерактивные методы в музыкальном развитии детей в условиях дополнительного образования».

2. Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to'sqinlik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo'llarini izlash;
3. Tajribali o'qituvchilarning darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llab o'tish borasidagi o'ziga xos usullari, ularni farqli va o'xshash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o'z faoliyatida tadbiq etishga o'rganish.

Bundan tashqari bugungi kun pedagogi musiqiy transformatsion tendensiyalar jarayonida o'quvchi yoshlarning milliy musiqa eshitish kunikmalarini shakllantirish va pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

1- Musiqa madaniyati fanini o'qitishda zamонавија yondashuvlar va innovatsiyalar.

Musiqa madaniyati darsni zamонавија talablar asosida tashkil qilish. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsiyalar. Innovatsiyalar haqida tushuncha berish. Musiqa madaniyati fanida innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish. Musiqa madaniyati darslariga qo'yiladigan zamонавија talablar asosida ularni tashkil etish.

2- Musiqa madaniyati fanini o'qitishda xorijiy ilg'or tajribalar.

Rivojlangan davlatlarda musiqa fanining mazmuni, uni o'qitishda ilg'or tajribalar va ulardan foydalanish texnologik metodlari.

3- Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda integrallash metodlari.

Musiqa madaniyati fanining boshqa fanlar bilan uzziy bog'liqligi. Musiqa bilan, rasm, tarix, adabiyot, geografiya, jismoniy tarbiya, tabiat, fizika, informatika, matematika va boshqa umumta'lim fanlari orasidagi bog'lanishlarga doir misollar. Musiqa madaniyatini va boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish darslarida kompetensiyalarni shakllantirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga qaratilgan tadbirlar.

4- Musiqa madaniyati darslarida zamонавија axborot texnologiyalari dasturlaridan foydalanish.

Kompyuterda amaliy dasturlar yordamida tayyorlangan didaktik vositalar, o'quv-metodik material va resurslar. Fanga oid elektron o'quv adabiyotlari, o'rgatuvchi tizimlar, multimedia va boshqa dasturidan dars jarayonida foydalanish. Musiqa madaniyati fani darslarida Power Point, Sibelius, Audacity, programma bilan ishlash va samarali foydalanish.

5- Musiqa madaniyati darslarini kuzatish va tahlil qilish.

Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda tayyorlangan didaktik vositalar, o'quvchilarning namunalarini o'rgatishimiz asnosida nafaqat milliy musiqamizni saqlab qolamiz balki uning kelajak avlodlarga yanada sayqal topib yetib borishligiga xissa qo'shgan bo'lamiz. Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshrilayotgan bir qator chora tadbirlar ham yuqoridagi fikrimizni asosi bo'lib hizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiysi" 28.11.2018 y. PQ-4038-son qarorida ko'zda tutilgan:

O‘quvchilarda milliy va mumtoz musika eshitish kunikmalarini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy musiqa merosimizni asrab-avaylash, yangi sharoitlarda rivojlantirish va ulardan xalqimizni bahramand qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish. Kompozitor, bastakor va sozandalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, havaskorlar orasidan iste’dodli ijrochilarни aniqlash maqsadida turli darajadagi ko‘rik-tanlovlarni o‘tkazish, an’anaviy musiqa janrlarini yangi shart-sharoitlarda rivojlantirish maqsadida "ustoz-shogird" an’anasini yanada rivojlantirish kabilarni targ‘ib etadi. Shu kabi davlatimiz tomonidan qabul qilingan chora tadbirlar milliy madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uзви va ajralmas qismi sifatida qaraladi, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida hamda milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshirilishi, bu esa, mamlakatning tarixiy rivojlanish jarayonida madaniyat va san’at xalqimizning ma’naviy boyligini saqlab, to’plab avlodlarga yetkazib kelgani, xalqimizda birdamlik, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini tarbiyalaganini e’tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg‘u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta’minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo‘lishiga erishish, ma’naviyatli, mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi ijodkor yoshlarni shakllantirishni maqsad qiladi.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, milliy musiqa merosimizni tinglash va o‘rganish jarayonida yosh avlodlarga yetkazishda bugungi zamon pedagoglari ta’limning barcha yutuqlarini tadbiq etgan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etishlari, nafaqat milliy musiqa merosimizni o‘rgatgan, balki uni saqlab qolgan tarzda kelajak avlodlarga yetib borishini ta’minlagan bo‘ladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/> - Педагогические\_технологии
2. Selevko, V. T. Fomenko. Texnologiya qarab tasniflanadi Ilmiy jurnal Kubgau, № 84 (10), 2012 yil
3. <https://nsportal.ru/sites/> interaktivnye metody
4. <https://nsportal.ru/> Мустафина А. Р. «Интерактивные методы в музыкальном развитии детей в условиях дополнительного образования».